didlar (darknet, kripto-aktivlar, elektron dalillar) o‘rtasidagi nomuvofiqlik maxsus tahlil obyekti sifatida tanlandi. Bu yondashuv faqat mavjud normalarni tavsiflash bilan cheklanmay, ularning amaliy samaradorligi va takomillashtirish yo‘llarini aniqlashga e’tibor qaratildi. Shuningdek, tadqiqotda zamonaviy narkotrafikda raqamli texnologiyalar, kripto-aktivlar, darknet va elektron dalillardan foydalanish bilan bog‘liq yangi tahdidlar ham tahlil qilindi.

Asosiy qism

Yangi zelandiyalik olim Neyl Boysterning fikricha, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi xalqaro emas, balki transmilliy jinoyat hisoblanadi (Boister, 2018). Shuning uchun davlatlarning mazkur sohadagi hamkorligi universal yurisdiksiya emas, balki shartnomaviy majburiyatlarga asoslanishi lozim. Olim ta’kidlaydiki, 1988-yilgi BMT Konvensiyasi davlatlarning milliy huquq tizimlarini muayyan darajada uyg‘unlashtirgan bo‘lsa-da, jinoyat yurisdiksiyasi milliy suverenitet doirasida saqlanib qolgan.

Fikrimizcha, N. Boyster transmilliy jinoyatchilikning shartnomaviy xususiyatini asosli ochib bergan. Biroq uning konsepsiyasida raqamli muhit, kriptovalyuta orqali giyohvandlik savdosi va sun’iy intellekt texnologiyalarining huquqiy ahamiyati yetarlicha yoritilmagan. XXI asrda davlatlarning xalqaro hamkorligi faqat shartnomalar ijrosi bilan cheklanmay, raqamli ma’lumotlar almashinuvi, elektron dalillarni tan olish va sun’iy intellekt asosida xavflarni baholash mexanizmlarini ham qamrab olishi lozim (Boister, 2018).

Akademik A. Saidov (2001) xalqaro huquqni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi universal huquqiy tizim sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, xalqaro hamkorlikning huquqiy asosini xalqaro shartnomalar, xalqaro odat normalari hamda xalqaro tashkilotlar doirasida qabul qilinadigan hujjatlar tashkil etadi.

Muallifning fikricha, ushbu yondashuv xalqaro huquq nazariyasi uchun fundamental ahamiyatga ega bo‘lsa-da, mazkur tadqiqot nuqtayi nazaridan u yetarli emas. Chunki giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning hamkorligi oddiy shartnomaviy munosabatlar bilan cheklanmaydi. Bu sohada axborot almashinuvi, qo‘shma tezkor tadbirlar, moliyaviy monitoring, raqamli platformalar, sun’iy intellekt texnologiyalari, transchegaraviy surishtiruvlar kabi yangi mexanizmlar shakllangan.

Zamonaviy xalqaro huquq nazariyasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish BMTning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, mazkur sohada davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik xalqaro huquqning mustaqil funksional instituti sifatida shakllangan.

Xalqaro huquq nazariyasida “davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi” tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Biroq olimlarning aksariyati mazkur institutni davlatlarning umumiy manfaatlarni ta’minlash maqsadida xalqaro huquq normalari asosida amalga oshiriladigan kelishilgan faoliyat sifatida baholaydilar.

Rojer S. Klark xalqaro jinoyat huquqining rivojlanishida BMT konvensiyalarining o‘rnini tahlil qilib, giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish sohasida davlatlar hamkorligining asosiy huquqiy manbayi universal konvensiyalar ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mazkur sohadagi xalqaro huquqning asosiy vazifasi davlatlarning jinoyat huquqini yaqinlashtirish hisoblanadi (Clark, 1994).

Fikrimizcha, olim milliy qonunchiliklarning uyg‘unlashuviga katta ahamiyat beradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hatto huquqiy normalar bir xil bo‘lgan davlatlarda ham hamkorlik darajasi institutsional imkoniyatlarga bog‘liq. Shuning uchun huquqiy unifikatsiya bilan bir qatorda axborot texnologiyalari va tezkor hamkorlik mexanizmlari ham rivojlantirilishi zarur.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida

davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi – xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqi hamda xalqaro tashkilotlar qarorlari asosida davlatlarning giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasini oldini olish, aniqlash, cheklash, tergov qilish, jinoyatchilarni javobgarlikka tortish hamda ushbu jinoyatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan huquqiy, institutsional va amaliy faoliyatidir.

Mazkur ta'rif xalqaro huquqning umumiy prinsiplari bilan bir qatorda, BMTning 1961-, 1971- va 1988-yilgi konvensiyalarida belgilangan majburiyatlarni ham qamrab oladi.

AQSHlik olim Devid P. Styuart xalqaro shartnomalar huquqi sohasidagi yetakchi olimlardan biri bo'lib, u xalqaro shartnomalarning milliy huquq tizimida amal qilishi va ijro etilishi davlatlarning o'z majburiyatlarini vijdonan bajarish prinsipiga tayanishini ta'kidlaydi. Giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish sohasida ham davlatlar o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilik orqali amalga oshirishi shart (Stewart, 1989).

Fikrimizcha, Devid Styuart xalqaro shartnomalarning yuridik kuchini yuqori baholaydi. Biroq amaliyotda ayrim davlatlarda siyosiy omillar, institutsional imkoniyatlar va moliyaviy resurslar yetishmasligi tufayli shartnomalar to'liq ijro etilmaydi. Muallifning fikricha, xalqaro monitoring mexanizmlarini kuchaytirish mazkur muammoni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur sohadagi xalqaro hamkorlikning mohiyati davlatlar o'rtasida huquqiy majburiyatlarning muvofiqlashtirilgan tarzda bajarilishini ta'minlashdan iborat.

Avstraliyalik olim Ben Saulning (2014) fikricha, giyohvandlikka qarshi kurashish inson huquqlarini cheklash hisobiga amalga oshirilmasligi lozim. Davlatlar xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga qat'iy rioya qilishi shart.

Fikrimizcha, Ben Saul inson huquqlari ustuvorligini asosli himoya qiladi. Biroq giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining transmilliy xususiyati ayrim hollarda davlatlardan tezkor choralarni talab etadi. Inson huquqlari va milliy xavfsizlik o'rtasida mutanosib huquqiy mexanizm shakllantirilishi lozim. Bu yerda asosiy maqsad xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, transmilliy uyushgan jinoyatchilikni cheklash, terrorizmni moliyalashtirish manbalarini qisqartirish, noqonuniy moliyaviy oqimlarni bartaraf etish va davlatlarning milliy xavfsizligini mustahkamlash hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur hamkorlik nafaqat huquqiy munosabat, balki xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi hamdir.

Xalqaro huquqiy hamkorlikning davlatlarning suveren tengligi, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquqlariga rioya qilish, vijdonan bajarish, xalqaro javobgarlik, o'zaro ishonch va o'zaro yordam kabi prinsiplari alohida ahamiyatga ega.

Italiyalik olim Antonio Maria Kosta BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC)ning sobiq Ijroiya direktori sifatida giyohvandlikka qarshi global hamkorlik konsepsiyasini rivojlantirgan. Uning fikricha, narkotrafik xalqaro uyushgan jinoyatchilikning iqtisodiy asosini tashkil etadi (Costa, 2008).

Olim global hamkorlikni kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Lekin uning ishlarida mintaqaviy tashkilotlarning mustaqil huquqiy mexanizmi yetarlicha tahlil qilinmagan. Muallif Turkiy davlatlar tashkiloti va SHHT kabi mintaqaviy institutlar kelajakda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi samarali kurashishni tashkil etish muammosi, tabiiyki, davlatda jinoyatchilik bilan bog'liq vaziyatni barqarorlashtirish jarayonida yetakchi o'rinni egallaydi.

Buyuk britaniyalik Uilyam Gilmorning fikricha, narkotrafikka qarshi kurashishda pul yuvishga qarshi xalqaro mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Gilmore, 2004). Fikrimizcha, ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlash kerak. Biroq zamonaviy kriptovalyutalar va raqamli aktivlardan foydalanish holatlari mazkur konsepsiyani yanada kengaytirishni talab qiladi.

Davlatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, jamiyat xolisona boshidan kechirayotgan qiyinchiliklar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlaridan giyohvandlik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda yanada takomillashtirilgan tizim ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

BMT doirasida qabul qilingan 1961-yilgi Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konvensiya giyohvandlik vositalarini xalqaro nazorat qilish tizimining fundamental huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur konvensiyaning asosiy maqsadi giyohvandlik vositalaridan faqat tibbiy va ilmiy maqsadlarda foydalanishni ta’minlash, noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatishning oldini olish va davlatlarning nazorat tizimlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Tadqiqot natijasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi xalqaro ommaviy huquqning mustaqil funksional instituti sifatida shakllangani aniqlandi. Biroq ushbu institutning mazmuni va samaradorligi turli olimlar tomonidan bir xil baholanmaydi.

Fransiyalik olim Pyer-Mari Dyupui xalqaro huquqda davlatlarning xalqaro majburiyatlari umumiy manfaatlarni ta’minlashga qaratilganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, giyohvandlikka qarshi kurashish xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaati hisoblanadi (Dupuy, 1992).

Muallif mazkur yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq umumiy manfaat konsepsiyasi amaliy hamkorlik mexanizmlari bilan mustahkamlanmasa, huquqiy samaradorlikka erishish qiyin. Konvensiya – giyohvandlik vositalarining yagona xalqaro ro‘yxatini, milliy nazorat organlarining vazifalarini va hisobot berish mexanizmlarini belgilaydi.

1961-yilgi konvensiya birinchi marta giyohvandlik vositalari muomalasini xalqaro huquqiy nazorat obyekti sifatida belgiladi. Biroq mazkur konvensiya dastlab asosan nazorat va ma’muriy mexanizmlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, narkotrafik bilan bog‘liq uyushgan jinoyatchilikka qarshi jinoyat-huquqiy choralarni yetarlicha qamrab olmagandi. Shu sababli keyingi xalqaro hujjatlarni qabul qilish zarurati yuzaga keldi.

Belgiyalik olim Sedrik Ringart davlat yurisdiksiyasi masalalarini tahlil qilib, transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda eksterritorial yurisdiksiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi (Ryngaert, 2008).

Fikrimizcha, eksterritorial yurisdiksiya muhim ahamiyatga ega. Biroq uni qo‘llash davlat suvereniteti prinsipiga zid kelmasligi lozim.

1961-yilgi Yagona konvensiya giyohvandlik vositalarini xalqaro nazorat obyekti sifatida belgilab, asosan ma’muriy va nazorat mexanizmlariga yo‘naltirilgan. U jinoiy ta’qib va uyushgan jinoyatchilikka qarshi choralar bo‘yicha yetarli normalarni o‘z ichiga olmagan. 1971-yilgi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya xalqaro nazorat tizimini kengaytirib, yangi turdagi psixoaktiv moddalarni huquqiy tartibga solish imkonini berdi.

1971-yilgi konvensiyaning asosiy ahamiyati uning moddalar doirasini kengaytirganida emas, balki xalqaro huquqda “yangi paydo bo‘layotgan psixoaktiv tahdidlarga moslashuvchan huquqiy mexanizm” shakllanishiga asos solganida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur konvensiyada jinoiy ta’qib mexanizmlari cheklanganligi sababli uning normalari 1988-yilgi konvensiya bilan to‘ldirildi.

1988-yilgi konvensiya mazkur sohadagi xalqaro huquqiy hamkorlikning eng muhim

hujjatlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati – giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasini transmilliy jinoyat sifatida tan olishidir. Konvensiya davlatlarga bir qancha majburiyatlarni yuklaydi. Unga muvofiq, ishtirokchi davlatlar giyohvandlik vositalarining noqonuniy ishlab chiqarilishi, sotilishi, tashilishi, saqlanishi va moliyalashtirilishini jinoyat sifatida e'tirof etishlari shart. Bundan tashqari, hujjat xalqaro huquqiy yordam doirasida tergov materiallarini almashish, dalillarni taqdim etish va protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi hamda giyohvandlik bilan bog'liq qilmishlarni ekstraditsiya qilinadigan jinoyatlar sirasiga kiritadi. Bu esa "jinoyatchi uchun xavfsiz hudud qoldirmaslik" prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi.

AQSHlik olim Sherif Bassioni xalqaro jinoyat huquqining fundamental nazariyasini ishlab chiqqan olimlardan biri hisoblanadi. U xalqaro hamkorlikning asosi *aut dedere aut judicare* (*yo topshir – ekstraditsiya qil yo sud qil*)prinsipi ekanligini ta'kidlaydi (Bassiouni, 2008).

Muallif mazkur prinsipni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq giyohvandlik sohasida bu prinsipni amalga oshirish uchun ekstraditsiya tartiblarini soddalashtirish zarur.

1971-yilgi konvensiya nazorat doirasini psixotrop moddalarga kengaytirdi va "yangi paydo bo'layotgan psixoaktiv tahdidlarga moslashuvchan mexanizm" g'oyasini shakllantirdi. Biroq jinoiy ta'qib mexanizmlari cheklanganligicha qoldi.

1988-yilgi konvensiyadagi eng muhim institutlardan biri nazorat ostida yetkazib berish (*controlled delivery*) hisoblanadi. Ushbu mexanizm huquqni muhofaza qiluvchi organlarga narkotik yuklarni darhol ushlash o'rniga ularning butun jinoiy tarmog'ini aniqlash imkonini beradi.

Davlatlarning mazkur sohadagi hamkorligi quyidagi fundamental prinsiplarga asoslanadi: davlatlar xalqaro hamkorlikda teng huquqli ravishda ishtirok etadi, xalqaro shartnomalar vijdonan bajarilishi shart. Bu prinsip 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida mustahkamlangan. Xalqaro hamkorlik davlatlarning ichki huquq tizimiga noqonuniy aralashishni anglatmaydi.

Buyuk Britaniyalik olim Rodjer O'Kif xalqaro huquqda yurisdiksiya va davlatlar hamkorligi masalalarini tahlil qilib, xalqaro shartnomalarning amaliyotda bir xil qo'llanishi muhimligini ta'kidlaydi (O'Keefe, 2015). Muallifning fikricha, xalqaro huquq normalarining samaradorligi ularning qabul qilinishi bilan emas, balki milliy amaliyotda bir xil tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlar o'rtasida qonunchilikni uyg'unlashtirish bilan bir qatorda huquqni qo'llash amaliyoti, raqamli axborot almashinuvi va qo'shma tergov mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

1988-yilgi konvensiya eng muhim burilish nuqtasi bo'ldi: noqonuniy muomalani transmilliy jinoyat sifatida tan oldi, ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam, nazorat ostida yetkazib berish va aktivlarni musodara qilish institutlarini mustahkamladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, uchta konvensiya yagona global mexanizmni tashkil etadi, biroq ularning hech biri raqamli texnologiyalar sharoitida yuzaga kelgan muammolarni to'liq qamrab olmaydi. Xususan:

– darknet platformalarida amalga oshiriladigan bitimlar an'anaviy "tashish" va "sotish" tushunchalariga to'liq mos kelmaydi;

– kripto-aktivlar orqali moliyalashtirish 1988-yilgi konvensiyaning moliyaviy kuzatuv normalariga qiyinchilik bilan tatbiq etiladi;

– elektron dalillarni tan olish va raqamli kriminalistika bo'yicha yagona xalqaro standartlar mavjud emas.

Bu holatlar konvensiyalar normalarining to'g'ridan to'g'ri tatbiq etilishida huquqiy bo'shliqlar yaratmoqda.

Hindistonlik Bimal N. Patel (2005) xalqaro huquqda davlatlarning hamkorligi, xalqaro tashkilotlar faoliyati va global xavfsizlik masalalarini tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, zamonaviy transmilliy tahdidlar, jumladan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish davlatlarning alohida harakatlarini emas, balki xalqaro huquqiy majburiyatlarni muvofiqlashtirishga asoslangan hamkorlik modelini talab qiladi. Patel xalqaro tashkilotlarni davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi huquqiy institut sifatida baholaydi.

Fikrimizcha, Bimal Patel xalqaro tashkilotlarning muvofiqlashtiruvchi rolini asosli ravishda ko‘rsatgan. Biroq muallifning fikricha, bugungi kunda xalqaro tashkilotlar faoliyatini faqat institutsional muvofiqlashtirish bilan cheklash yetarli emas. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasida raqamli texnologiyalardan foydalanish kengayib borayotgani sababli xalqaro tashkilotlar doirasida yagona axborot-texnologik hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi zamonaviy xalqaro huquqning kompleks instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur institutning huquqiy tabiati faqat davlatlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar bilan cheklanmaydi, balki xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlar faoliyati, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari, milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy hamkorligi va axborot-texnologik mexanizmlar yig‘indisi orqali shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur sohadagi xalqaro huquqiy hamkorlikni an’anaviy davlatlararo hamkorlik shakli sifatida emas, balki ko‘p darajali xalqaro huquqiy boshqaruv mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Kanadalik olim Yvon Dandurand transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, narkotrafik kabi jinoyatlar davlatlararo hamkorlikning uch asosiy elementi – huquqiy uyg‘unlashtirish, institutsional hamkorlik va tezkor axborot almashishni talab qiladi (Dandurand & Chin, 2004).

Fikrimizcha, olimning transmilliy jinoyatchilikka kompleks yondashuvi qo‘llab-quvvatlanadi. Biroq zamonaviy sharoitda mazkur uch elementga yana bir muhim yo‘nalish – raqamli kriminalistika va elektron dalillar bilan ishlash mexanizmi qo‘shilishi lozim.

Xalqaro huquq nazariyasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi davlatlar hamkorligi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, mazkur tushunchaga yagona universal ta’rif shakllanmagan. O‘zbekistonlik professor A. Matchonov (2020) xalqaro hamkorlikning asosiy vazifasi davlatlarning xalqaro shartnomalar bo‘yicha qabul qilgan majburiyatlarini bajarish mexanizmini ta’minlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. U xalqaro tashkilotlar, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlarni hamkorlikning asosiy huquqiy vositasi sifatida baholaydi.

Muallifning fikricha, ushbu yondashuv xalqaro huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan asosli bo‘lsa-da, zamonaviy narkotrafikning xususiyatlari uni yanada kengroq talqin qilishni talab etadi. Hozirgi davrda transmilliy jinoiy tarmoqlar kriptovalyuta, darknet, elektron to‘lov tizimlari va raqamli kommunikatsiyalardan foydalanmoqda. Shuning uchun faqat shartnomaviy majburiyatlarni bajarish mazkur tahdidlarga qarshi turish uchun yetarli chora emas.

AQSHlik olim Luiz Shelli transmilliy uyushgan jinoyatchilik va globallashuv o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilgan (Shelley, 2014). Uning fikricha, narkotiklar savdosi global iqtisodiy tizimlardan foydalanuvchi uyushgan jinoiy tarmoqlar faoliyati bilan bog‘liq.

Fikrimizcha, Shellining iqtisodiy yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Biroq

giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda faqat moliyaviy oqimlarni nazorat qilish emas, balki huquqiy mexanizmlarni unifikatsiya qilish ham talab etiladi.

Tadqiqot natijalarini xalqaro huquq nazariyasidagi mavjud yondashuvlar bilan solishtirish giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligiga nisbatan bir necha konseptual maktablar mavjudligini ko‘rsatdi. Ular o‘rtasidagi farqlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

Birinchi guruh olimlar (N. Boyster, A. Matchonov) hamkorlikni asosan *shartnomaviy* institut sifatida baholaydi. Boysterning “transmilliy jinoyat” konsepsiyasi 1988-yilgi konvensiyaning mohiyatiga mos keladi va universal yurisdiksiyani rad etishi bilan suverenitet prinsipini himoya qiladi. Matchonov ham shartnomaviy majburiyatlar va xalqaro huquqiy yordamni markazga qo‘yadi. Bu yondashuvning kuchli tomoni – huquqiy aniqligi va davlatlar roziligiga asoslanishidir. Zaif tomoni esa raqamli muhitda yuzaga kelgan yangi munosabatlarni (darknet bitimlari, kripto-aktivlar harakati, elektron dalillar) qamrab ololmasligidir. Shartnomaviy model o‘z-o‘zidan tezkorlik va texnologik moslashuvchanlikni ta’minlamaydi.

Ikkinchi guruh (Rojer S. Klark, Devid P. Styuart) xalqaro majburiyatlarni *vijdonan bajarish* va *huquqiy tizimlarni muvofiqlashtirish* prinsipiga urg‘u beradi. Bunda Klark milliy jinoyat qonunchiliklarini o‘zaro yaqinlashtirish va universal standartlarga keltirishni asosiy vazifa deb biladi. Styuart esa shartnomalarning milliy huquqda amal qilishini xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiga bog‘laydi. Bu yondashuvlarning afzalligi – normalarning bir xilligini ta’minlashga intilishidir. Amaliyot esa shuni ko‘rsatadiki, hatto qonunchilik uyg‘unlashgan davlatlarda ham hamkorlik darajasi institutsional imkoniyatlar, texnik resurslar va siyosiy irodaga bog‘liq. Demak, milliy qonunchilik normalarini o‘zaro yaqinlashtirish va huquqiy unifikatsiya zarur, lekin u yetarli shart emas.

Uchinchi guruh (Y. Dandurand, A. Kosta, U. Gilmor) *institutsional va moliyaviy* jihatlarni ilgari suradi. Dandurand huquqiy uyg‘unlashtirish, institutsional hamkorlik va tezkor axborot almashinuvini uchta asosiy element sifatida ko‘rsatadi. Kosta va Gilmor narkotrafikni uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy moliyaviy oqimlar bilan bog‘lab, aktivlarni musodara qilish va pul yuvishga qarshi mexanizmlarni muhim deb hisoblaydi. Bu yondashuvlarning kuchli tomoni – amaliy yo‘nalganligidir. Biroq ular ham raqamli transformatsiyani to‘liq hisobga olmaydi: kripto-aktivlar an’anaviy moliyaviy monitoring vositalaridan chetda qolmoqda, darknet esa tezkor axborot almashinuvi uchun yangi to‘siqlar yaratmoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish (B. Saul) *inson huquqlari* nuqtayi nazaridan cheklovlarni eslatadi. Xavfsizlik choralari inson huquqlari standartlariga zid kelmasligi lozim. Bu pozitsiya muhim, chunki tezkor operatsiyalar va ekstraditsiya jarayonlarida huquqbuzarliklar xavfi mavjud. Shu bilan birga, mutanosiblik prinsipini ta’minlash mexanizmlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi yondashuvlarni rad etmagan holda ularni to‘ldirish lozim, deb hisoblaymiz. Shartnomaviy asos, huquqiy uyg‘unlashtirish, institutsional hamkorlik va inson huquqlari muhofazasi zarur. Lekin zamonaviy sharoitda ularning hech biri raqamli texnologiyalar yuzaga keltirayotgan huquqiy bo‘shliqlarni yopmaydi. Shuning uchun xalqaro huquqiy hamkorlikni faqat shartnomaviy yoki institutsional institut sifatida emas, balki *normativ-institutsional-amaliy-raqamli* elementlarni birlashtirgan kompleks funksional institut sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bu yondashuv mavjud konsepsiyalarning kuchli tomonlarini saqlab, ularning zaif tomonlarini (raqamli muhitga moslashmaslik) bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari xalqaro huquq nazariyasidagi mavjud yondashuvlarni inkor etmaydi, balki ularni raqamli transformatsiya sharoitida yangilash zarurligini asoslaydi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi zamonaviy xalqaro ommaviy huquqning muhim funksional instituti sifatida shakllanganini ko‘rsatdi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida davlatlarning xalqaro huquqiy hamkorligi xalqaro ommaviy huquqning mustaqil funksional instituti sifatida shakllangan. Uning huquqiy asosini 1961-, 1971- va 1988-yilgi BMT konvensiyalari, ikki va ko‘p tomonlama shartnomalar hamda xalqaro tashkilotlar mexanizmlari tashkil etadi.

1961-, 1971- va 1988-yilgi konvensiyalar alohida hujjatlar emas, balki yagona global xalqaro huquqiy mexanizmni tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq normativ tizimdir. Biroq ular asosan an’anaviy (fizik) muomalaga mo‘ljallangan.

Zamonaviy narkotrafikning raqamlashuvi (darknet, kripto-aktivlar, elektron to‘lovlar, elektron dalillar) mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlarda sezilarli huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirgan. Bu bo‘shliqlar elektron dalillarni tan olish, kripto-aktivlarni kuzatish va virtual muhitda nazorat ostida yetkazib berish institutlarining yetarli rivojlanmaganligida namoyon bo‘ladi.

Mavjud ilmiy yondashuvlar (Boyster, Klark, Dandurand, Shelli va boshqalar) asosan shartnomaviy, huquqiy uyg‘unlashtirish yoki institutsional jihatlarga e’tibor qaratadi. Raqamli texnologiyalar sharoitida ularni to‘ldirish zarur. Xalqaro huquqiy hamkorlik faqat shartnomaviy munosabatlar yig‘indisi emas, balki huquqiy, institutsional, amaliy va raqamli elementlarni yagona tizimda birlashtiruvchi kompleks funksional institut sifatida rivojlantirilishi lozim.

Xulosa o‘rnida ushbu ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

– 1988-yilgi konvensiyaga qo‘shimcha protokol orqali elektron dalillar, kripto-aktivlar va darknet platformalariga oid maxsus normalarni kiritish;

– UNODC doirasida yagona raqamli axborot almashinuvi va elektron dalillarni tan olish platformasini yaratish;

– “Nazorat ostida yetkazib berish” institutini virtual muhitga moslashtirish (*virtual controlled delivery*);

– mintaqaviy tashkilotlar (SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti) doirasida raqamli kriminalistika bo‘yicha qo‘shma ishchi guruhlar tuzish;

– ekstraditsiya va o‘zaro huquqiy yordam tartiblarini soddalashtirish, elektron so‘rovnomalarni tan olish mexanizmlarini joriy etish.

Ushbu chora-tadbirlar xalqaro huquqiy hamkorlikni zamonaviy transmilliy tahdidlarga moslashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

Bassiouni, M. C. (2008). *International criminal law* (3rd ed.). Martinus Nijhoff Publishers. https://lawcat.berkeley.edu/record/1232982

Boister, N. (2018). *An introduction to transnational criminal law*. Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/an-introduction-to-transnational-criminal-law-9780198795995

Clark, R. S. (1994). *The United Nations Crime Prevention and Criminal Justice Program: Formulation of standards and efforts at their implementation.* University of Pennsylvania Press. https://openaccess.

wgtn.ac.nz/articles/thesis/The_United_Nations_Crime_Prevention_and_Criminal_Justice_Program_Formulation_of_standards_and_efforts_at_their_implementation/29897789

Costa, A. M. (2008). *Drug control, crime prevention and criminal justice*. UNODC. https://viennamission.mid.ru/en/news/14-11-2008_vstreca-dire_61986787119c79587c2b7747e4ee9b0e/

Dandurand, Y., & Chin, V. (2004). *The internationalization of organized crime and criminal justice responses*. International Centre for Criminal Law Reform and Criminal Justice Policy. https://icclr.org/wp-content/uploads/2020/05/Dandurand_Police-Governance-and-Organized-Crime.pdf

Dupuy, P.-M. (1992). *Droit international public*. Dalloz. https://www.persee.fr/doc/polit_0032-342x_1992_num_57_3_5853_t1_0676_0000_2

Gilmore, W. (2004). *Dirty money: The evolution of international measures to counter money laundering and the financing of terrorism* (3rd ed.). Council of Europe Publishing. https://book.coe.int/en/economy-and-crime-fight-against-corruption/3008-dirty-money-the-evolution-of-international-measures-to-counter-money-laundering-and-the-financing-of-terrorism-3rd-edition.html

Matchonov, A. (2020). O sovershenstvovanii mezhdunarodno-ugolovno-protsessualnogo mekhanizma rozyska lits, sovershivshikh korruptsionnye prestupleniya [On improving the international criminal procedure mechanism for tracing persons who have committed corruption crimes]. *Bulletin of the Ural Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, (2), 154–158. https://cyberleninka.ru/article/n/o-sovershenstvovanii-mezhdunarodnogougolovno-protsessualnogo-mehanizma-rozyska-lits-sovershivshih-korruptsionnye-prestupleniya/viewer

O'Keefe, R. (2015). *International criminal law*. Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/international-criminal-law-9780199689040

Patel, B. N. (2005). *The state practice and international law*. Martinus Nijhoff Publishers. https://www.researchgate.net/publication/285802982_Biman_N_Patel_ed_India_and_International_Law_Leiden_Martinus_Nijhoff_2005_ISBN_9004145192_380_pp_13000_hb

Ryngaert, C. (2008). *Jurisdiction in international law*. Oxford University Press. https://www.researchgate.net/publication/231994122_Jurisdiction_in_International_Law_by_Cedric_Ryngaert_Oxford_University_Press_Oxford_2008_ISBN_978-0199-544-714_310_pp_60_hbk

Saidov, A. Kh. (2001). *Xalqaro huquq* [International law]. Adabiyot jamg'armasi. https://library.tsul.uz/uz/books/22142

Saul, B. (Ed.). (2014). *Research handbook on international law and terrorism*. Edward Elgar Publishing. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2386470

Shelley, L. I. (2014). *Dirty entanglements: Corruption, crime, and terrorism*. Cambridge University Press. https://scholar.google.com/citations?user=6RNMpr4AAAAJ&hl=en

Stewart, D. P. (1989). The United Nations Convention Against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances. *American Journal of International Law*, *83*(3), 577–593. https://access.heinonline.com/HOL/Page?collection=journals&handle=hein.journals/denilp18&id=396&men_tab=srchresults

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence